

QADIMDA O'RTA OSIYO VA XITOIY O'RTASIDA IQTISODIY-MADANIY ALOQALAR



Amirxo'ja Toirxo'jaev
"O'zbekiston tarixi davlat muzeyi" ilmiy xodim

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-06-01>

Annotatsiya: Davlatlar o'rtasidagi madaniy va iqtisodiy aloqalar rivojlanib borgan sari xalqlar o'rtasidagi aloqalar ham mustahkamlanib boradi. Qadimda mavjud bo'lgan Buyuk ipak yo'li ham shunday aloqalar natijasida vujudga kelgan. Ushbu maqolada, O'rta Osiyo va qadimgi Xitoy aloqalari rivojlanishi, sharq va g'arbni bog'lab turuvchi Buyuk Ipak yo'li vujudga kelish tarixi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: Davan, Xitoy xan sulolasi, Sin Shixuandi, U-di, Chjan Syan, Tarixiy xotiralar, Qang', Farg'ona, Toshkent, Chan'an, Dunghuan.

Аннотация: По мере развития культурных и экономических связей между странами укрепляются и связи между народами. В результате таких связей образовался древний Шелковый путь. В этой статье вы узнаете о развитии связей между Центральной Азией и древним Китаем, а также об истории возникновения Шелкового пути, который соединил Восток и Запад.

Ключевые слова: Давань, китайская династия Хань, Синь Шихуанди, У Ди, Чжан Сян, Исторические воспоминания, Кан, Фергана, Ташкент, Чанъань, Дунгуань.

Abstract: As cultural and economic ties between countries develop, so do the ties between peoples. As a result of these ties, the ancient Silk Road was formed. In this article, you will learn about the development of ties between Central Asia and ancient China, as well as the history of the Silk Road, which connected the East and the West.

Keywords: Davan, Chinese Han Dynasty, Xin Shi Huangdi, Wu Di, Zhang Xiang, Historical Memories, Kang, Fergana, Tashkent, Chang'an, Dongguan.

O'rta osiyo va Xitoy munosabatlari doimo tinchlik yo'li bilan olib borilmagan, ular o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlar ham sodir bo'lgan. Shunga qaramasdan, ular o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalar to'xtovsiz davom etgan. O'rta Osiyo geografik jihatdan juda qulay yerda, savdo sotiq va diplomatik aloqalarni yuritish va keng ko'lamli madaniy markaz hududda joylashgan edi. Uning chegaralari sharqda Xitoy, g'arbda Kaspiy dengizi, janubda Eron va Hindiston, shimolda esa bepoyon dashtliklar bilan chegaradosh bo'lgan. Shunday ekan, bu hudud, o'z davrining qudratli imperiyalari bilan chegaralangan va ular bilan dam do'stlik va savdo to'g'risida, ham urush va sulh haqida o'zaro aloqalar olib borgan. Biz bu aloqalar tarixini tahlil qilar ekanmiz, bunda Xitoy bilan bog'liq jihatlarni o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Xo'sh, O'rta Osiyo va Xitoy o'rtasida dastlabki aloqalar qachonda yuzaga kelgan? Bizdan oldingi o'tgan davr kattaligi, aloqalarning keng ko'lamli bo'lganligi uchun alohida qadimgi davr misolida o'rganishni ma'qul topdik. Qadimgi davrdan O'rta Osiyo va Xitoy. Taxminlarga ko'ra, O'rta Osiyo va Xitoy xalqlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining tarixi miloddan avvalgi V-IV asrlarga borib taqaladi. Xususan, Davan(Farg'ona)-Xitoy munosabatlari qachon boshlanganligi aniq emas. Bu munosabatlar juda qadimdan boshlangan bo'lishi mumkin. Sababi, tadqiqotchilar mil.avv IV-III ming

yilliklarda cho'l va dasht atrofida vujudga kelgan madaniyat O'rta Osiyo, Qozog'iston, Mo'g'iliston, Shimoliy Xitoyda umumiy birlikka ega ekanligi aytiladi.

Davan davlati O'rta Osiyo va Xitoy munosabatlarida asosiy ro'l o'ynagan. Chunki farg'onaliklar mil.avv II asrda juda mohir savdogar, molni narxi ustida bir-biriga gap bermasdan tortishilganligi aytiladi. Shuning uchun farg'onaliklar qadimdan savdogarchilik bilan shug'ullanganligi bois Xitoyga borib savdo-sotiq ishlarini olib borganlar. Ya'ni, bu Farg'ona-Xitoy munosabatlarining qadimdan boshlanganligiga asosdir. Farg'onaliklar borib savdo qilganliklari uchun mil.avv II asrdan Xitoyga oid ma'lumotlarga ega bo'lganlar. Lekin bu ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Xitoyliklar farg'ona haqidagi ma'lumotga faqatgina Chjan Syanning sayohatidan keyingina ega bo'ladi. Bu asosan Markaziy Osiyoning shimolidagi xun, yuechji qabilalarining Xitoyga bosqinlari bilan bog'liq. Bu xalqlar Xitoyning shimoliy va g'arbiy hududlarini talon-taloj qilishardi. Mil. avv. 246-yilda Xitoy davlati yagona Sin davlatiga birlashtirilgach, imperator In Chjen (Sin Shixuandi, mil.avv. 246-210) tarixchilarga Xitoydan g'arb tomondagi davlatlar haqida axborot to'plashni, ularni tahlil qilib, o'rganib chiqib, xaritalarini tuzishni buyuradi. Biroq bu masala amalga oshmay qoladi. In Chjen davrida xunlarning Xitoyga hujumi nihoyatda kuchayib ketadi.

Bunga javoban imperator mamlakatning shimolini va g'arbini ulkan devor bilan o'rashni buyuradi. Shu tariqa Buyuk Xitoy devori qurilishi boshlanadi. Umuman olganda aloqalarning bu davri haqida aytarli tarixiy malumotlar saqlanib qolmagan, faqat imperator va xunlar, yuechjilar, o'rtasidagi kurashlar ayrim Xitoy solnomalarida uchraydi. O'rta Osiyo va Xitoy o'rtasidagi bevosita aloqalar mil.avv. 128 yilda o'rnatilgan. Buning sababi esa Xitoy imperatori U Di (mil.avv.140-87 yillar) ning xunlarga qarshi kurashda ittifoqchi madadiga muhtojligi sabab bo'lgan. Aloqalar asosan, Farg'onadagi Davan hamda Toshkent vohasi, Chimkent, Sirdaryoning quyi havzasida joylashgan Qang' davlatlari bilan olib boriladi. U mil. avv. 138-yilda o'zining eng ishonchli ayonlaridan biri, tarixchi Chjan Syanni xunlarga qarshi ittifoqchi va hamkor topish uchun g'arbga yuboradi. Chjan Syan o'z sayohatini Xitoyning Sian shahrida boshlaydi, keyin esa Sharqiy Turkistondan o'tib, Markaziy Tyanshan Davanlari orqali, Yettisuvga yetib boradi, u yerdagi Norin daryosining sohillari bo'ylab, Farg'ona vodiysiga kirib keladi. Shundan boshlab butun Osiyo va Yevropa taraqqiyotiga, madaniyat va fanning rivojida ulkan hissa qo'shgan „Buyuk ipak yo'li“ vujudga keladi. Bu yo'lning vujudga kelishi O'rta Osiyo va Xitoy o'rtasidagi aloqalarga bevosita bog'liqdir. Chjan Syan Farg'ona vodiysiga kirib kelgan paytda bu hududda Davan davlati (mil.avv.III.asr-mil. II asr) hukm surardi. Keyinchalik Chjan Syan o'z estaliklarida Davan davlati, uning xo'jalik, ijtimoiy, madaniy hayoti, harbiy holati haqida ma'lumotlar keltirib o'tadi. Chjan Syan Davan hukmdori Mug'va (yoki Motsoy, mil.avv.II.asr) bilan o'z maqsadi yuzasidan muzokaralar olib boradi. U hukmdorga imperatorning maktubini yetkazar ekan, uning yordamidan umidvor ekanligini aytadi. Biroq hukmdor uning taklifini qabul qilolmaydi. Bunga o'sha davrdagi xalqaro vaziyat yo'l bermasdi. Birinchidan, Xitoy Davan davlatidan ancha uzoqda bo'lib, ikki davlat o'rtasida xunlar davlati joylashgan edi va bu ittifoq Davan davlatini xunlar hujumiga duchor qilishi aniq edi. Xitoy esa yordam ko'rsata olmas edi. Ikkinchidan, Davan davlatining ittifoqchisi hisoblangan Qang' davlati Xitoy bilan o'zaro urush holatida edi. Agarda Davan bu ittifoqqa rozi bo'lsa, o'zining eng yaqin ittifoqchisiga xiyonat qilgan va bunda ham bosqinga duchor bo'lishi aniq edi. Shu sababdan ham hukmdor elchilardan tezroq qutulmoqchi bo'ladi. Ularga keng ko'lamli savdo-sotiq aloqalarini olib borishni taklif qiladi. Bundan tashqari o'z davrida juda ham mashhur bo'lgan Davan samoviy otlaridan ikkitasini hamda beda urug'ini sovg'a qiladi. Qoniqarli javob ololmagan Chjan Syan g'arbga yo'l oladi. U o'zi uchun vodiydagi yangi bir olamni kashf etadi. Keyinchalik o'z yurtiga qaytgan Chjan Syan o'zi ko'rgan-kechirganlari haqida Xitoy imperatoriga so'zlab beradi. U yurgan yo'l bo'ylab esa, Sharq va G'arbn 1500 yil davomida bog'lagan savdo yo'li o'tadigan bo'ldi. Xitoy va O'rta Osiyo xalqlari orasidagi savdo aloqalari ham shu davrdan boshlanadi. Keyinchalik harbiy jihatdan kuchaygan Xitoyning Xan imperiyasi xunlarni yengib, ularni Sharqiy

Turkistondan siqib chiqaradi. Mil.avv. 121-yilda imperator U Di Dunxuanni egallaydi. Endigi navbat esa Farg'ona vodiysi va Toshkent vohasi edi. Xitoy hukmdorining bu hududlarni egallashdan maqsadi o'z qo'shinini sifatli otlar bilan taminlash edi. Buning sababi Chjan Syan Xitoyga olib borgan otlarning nihoyatda go'zalligi, barkamolligi, baquvvatligi edi. Xitoyliklar bu otlarga samoviy deb nom berishgan. Imperatorning fikricha, agar u o'z qo'shinini bunday otlar bilan ta'minlasa, uning otliqlarini yengadigan kuch topilmasdi. Sharqiy Turkiston egallangach, imperator o'z qo'shinini Davan davlatiga qarshi jo'natadi. Ikki o'rtada kurashlar, qirg'inlar bir necha yil davom etadi. Xitoy Davan davlatiga qarshi ikki marta qo'shin tortadi. Birinchi marta mil. avv. 104-yilda, nisbatan kichikroq qo'shin bilan yetib kelgan xitoyliklar mag'lubiyatga uchraydilar. Ularning qo'shinlari Davan poytaxti Ershi yaqinida mag'lub etiladi. Biroq mil. avv. 101-yilda Xitoyliklarning katta qo'shini Ershini egallashga muvaffaq bo'ladi. Ularga Li Guangli degan Xitoy sarkardasi boshchilik qiladi. Davan hukmdori esa g'arbga chekinib, o'zining ittifoqchisi Qang' davlatidan yordam so'raydi. Bunga javoban Qang' humdori 10000 otliq va 30000 piyoda askar bilan Ershiga tomon yurish qiladi. Bu paytda esa Ershining o'zida ham ahvol nihoyatda murakkab edi. Oddiy xalqning noroziligi ortib borar, tarqoq holdagi isyonlar sodir bo'lmoqda edi. Bundan tashqari, g'arbdan Qang' qo'shinlarining kelayotgani to'g'risidagi xabar xitoyliklarni sarosimaga solib qo'ydi. Shunda ularning mag'lub bo'lishlariga ko'zlari yetib, butun xalqni katta maydonga to'plab, ularning shaharlarini to'lov evaziga tark etishlarini bildirishadi. Bunga javoban aholi Xitoyliklarga 1000 ta eng yaxshi otlar, o'n xachirda oltin, kumush, qurollar va boshqa qimmatbaho buyumlarni topshirishadi. Shu tariqa Xitoyning Davan davlatiga qarshi yurishlari nihoyasiga yetadi. Mil. avv. I - milodiy IV asrlarda Xitoydagi o'zaro urushlar, O'rta Osiyodagi tarqoqliklar natijasida aytarli diplomatik aloqalar olib borilmagan. Biroq ikki hudud o'rtasida savdo aloqalari gullab yashnagan. Ilk bor Xitoy hududidan boshlanib g'arb tomonga minglarcha kilometr masofaga cho'zilgan (12 ming km.), Sharq bilan g'arbni tutashtirgan. Bu noyob savdo yo'li ulug' ajdodlarimiz sa'y-harakatlari samarasi o'laroq umumbashariyat tarixiy taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan. Ayniqsa, bu yo'lning Vatanimiz sarhadlaridan o'tganligi uning tarixiy taqdirida, iqtisodiy-madaniy yuksalishida hamda boshqa xorijiy ellar bilan izchil hamkorlik va xamjihatlikda katta ijobiy ro'l o'ynagan Buyuk ipak yo'lining o'rni beqiyos bo'lgan. Buyuk ipak yo'li orqali Xitoyga Sug'diyonadan jun gazlama, gilam, bezak buyumlari, qimmatbaho toshlar olib borilgan. Baqtriyadan tuyalar, Farg'onadan nasldor otlar, Badaxshondan la'l olib borib sotilgan. Xitoydan esa guruch, shoyi gazlamalar, ipak, va boshqa mahsulotlar olib kelingan. Ikki o'rtadagi savdo munosabatlari bu hududlar iqtisodiyotining yuksalishiga, mahsulot ishlab chiqarishning o'sishiga xizmat qilgan. Ikki tomonlama ilm-fan va xo'jalik yutuqlarining almashinishi har ikki hudud taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Ma'lumki mil.avv. I asrda xitoyliklar muhim ixtirolardan biri bo'lmish qog'ozni yaratgan edilar. Dastlab faqat xitoyliklarga ma'lum bo'lgan qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasi keyinchalik, savdogarlarning sa'yi harakatlari natijasida Sharqiy Turkiston orqali O'rta Osiyoga kirib keldi. Undan butun dunyo bo'ylab tarqaldi. Xuddi shu fikrlarni ipak qurti, choy yetishtirish texnologiyalariga nisbatan ham bildirsak bo'ladi. O'z navbatida, xitoyliklar ham O'rta Osiyo xalqlarining ilm fanga doir yutuqlarini o'rgandilar. Jumladan, mil. avv. II asrdayoq ular beda yetishtirish, anor, uzum, yong'oq kabi mevalar yetishtirishni, V asrda rangdor shishalar tayyorlashni, 718-yilda Samarqanddan yuborilgan dubulg'a asosida, dubulg'alar yasashni o'rganib oldilar. Xullas, O'rta Osiyo va Xitoy o'rtasida qadimgi davrda o'zaro urushlar, sovuq munosabatlar bo'lganiga qaramay bu davrda ikki hudud orasida keng ko'lamli savdo va madaniy aloqalar o'rnatilib, bu insoniyat tarixida juda katta o'rin tutdi. Bularning bari, eng yirik savdo va madaniy aloqalar rivojlangan Buyuk Ipak yo'lining vujudga kelishi uchun asos bo'ldi. Markaziy Osiyo va qadimgi Xitoy o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar O'rta osiyo aholisi orqali amalga oshirilgan. Dastlabki savdo aloqalari tovar ayirboshlash asosida bo'lgan. Keyinchalik tanga pullar asosida savdo qilina boshlandi. O'sha davr Markaziy Osiyo davlatlarida turli xil mahalliy buyumlar ishlab chiqarilgan.

Tarixiy asarlarda qayd etilishicha, «Buyuk Ipak yo'li» tarixida saklardan tashqari, Xunlar ipak yo'lida dastlabki savdo-sotiqda vositachi sifatida katta ta'sir etgan xalq hisoblanardi. Xunlarda asosan chorvachilik Xitoyga qaraganda ancha rivojlangan. Jumladan ot, qoramol, qo'y, tuya, eshak va xachir Xitoyning tuz, bezakli buyumlariga ayirboshlangan. Hatto yaylov otlari Xitoy harbiy va iqtisodiy hayotida muhim o'rin egallagan. Kundalik transport vositasi sifatida keng qo'llanilgan. Qadimgi Xitoy mil. av. I asrlarga kelib Markaziy Osiyodagi ulkan Qang' (Kangkiya / Kangjiyuy) davlati bilan iqtisodiy munosabatlarini kengaytiradi. Sababi, Qang' davlati Ipak yo'lining shimoliy va markaziy qismida joylashgan edi. Qolaversa, Xitoy mahsulotlari Markaziy Osiyo orqali o'tgan yo'llarda Kangkiya davlati savdo xavfsizligini ta'minlab bergan. Shu munosabat bilan Xan imperatori Chen-di (mil. av. 36-6 yy.) davrida Qang' hukmdorlari bilan savdo-elchilik aloqalari olib borilgan.

Xan davridan boshlab Markaziy Osiyo bilan savdo- sotiq aloqalarida elchilar muhim ahamiyat kasb etgan. Sababi saroy tomonidan g'arbgacha jo'natilgan elchi siyosiy vazifalardan tashqari mahalliy mahsulotlarni ayirboshlash uchun o'zi bilan bir qancha savdo buyumlarini olib yo'lga chiqqan. Elchi guruhiga birlashtirilgan savdo karvonlari turli maqsadlarga jo'natilgan. Mil. av. 119 yil Chjang Chyan 300 kishiga boshchilik qilib Usun davlatiga yo'lga chiqqanda o'zi bilan oltin, kumush, qimmatbaho ipak matolar, bir necha o'n ming bosh mol, qo'y va jamoaning har bir kishisi ikkitadan ot olgan edi. Bu 300 kishilik jamoa ichida turli toifadagi shaxslar bo'lgan. Chjang Chyaning bu safargisi Markaziy Osiyodagi ikkinchi missiyasi hisoblanadi. Elchi Usun davlatidan turib hatto o'ziga yordamchi elchilarni Qang' (Kangkiya, Kangjiyuy), Farg'ona (Dayyuan), Ulug' O'g'uziye (Day Rouziye), Shendu (Shimoliy Hindiston) davlatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirish uchun jo'nataidi. Ayni shu davrda Markaziy Osiyoga yuborilgan savdo elchilar guruhi nihoyatda ko'paygan. Shu bilan bir qatorda Markaziy Osiyo qadimgi davlatlaridan ham elchilar mahalliy buyumlarni Xitoy saroyiga olib borgan. Chjang Chyan birinchi marta Markaziy Osiyoga elchi bo'lib borganida, uning elchilik jamoasi bir necha yuz kishidan iborat bo'lib, savdo xususiyatiga ega bo'lgan o'zlari bilan ipak va ipak matolar, temir buyumlar, lak buyumlar va boshqa Xitoyning mahalliy buyumlarini ayirboshlash qilgan. U savdo qilgan xududlardan bir necha bosh qo'y, mol, ot, uzum va boshqa mahalliy mahsulotlarni o'sha paytdagi Xitoy poytaxti Chan'anga (hoz. Shian 西安) olib ketishgan. Oxirgi yillardagi xitoy tarixiy asarlarida xudou (胡豆 – mosh), xutao (胡桃 – shaftoli), xuma (胡麻 – kunjut), xutsong (胡葱 piyoz) kabi o'simliklar Chjang Chyan o'zi bilan birga Xitoyga olib kelgan degan ma'lumotlar uchraydi. Xitoy saroyiga elchilarning bergan hisobotida borgan mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli, mahalliy buyumlar ko'proq qiziqtirgan. Chunki Xitoy g'arb bilan savdo sotiqni jonlantirishda bu muhim ahamiyat kasb etgan.

Sulolalar tarixining dastlabkisi «Tarixiy xotiralar» (Shiji)da qadimgi Markaziy Osiyo davlatlarida mahalliy buyumlar haqida ma'lumotlar batafsil keltiriladi. Jumladan, Buyuk Farg'ona (Da-yuan)liklar dehqonchilik bilan shug'ullanishi, sholi va bug'doy ekishi, uzumdan sharob tayyorlashi, zotli otlar ko'pligi va Parfiyaliklarda ham ushbu maxsulotlar mavjud bo'lgan. Asuen (Usun) va Kangkiya davlatida esa chorvachilik maxsulotlari, Baqtriya (Dayg'ia / Dashya)da dehqonchilik maxsulotlari, u yerliklar savdo ishlariga chaqqonligi, undagi bozorlarda har xil mollar sotilishi avj olgan.

Dastlab Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasidagi savdoda Xan saroyi Turon davlatlaridan otlar import qilgan. Biroq import qilingan otlar soni nisbatan kam bo'lgan. Sababi mil. av. II – mil. II asrning o'rtalarigacha Xitoyning atrofida ot boqiladigan joylar hunlar nazorati ostida bo'lgan. Otlarning importi Xitoyning harbiy sohasida muhim ahamiyat kasb etgan. O'sha davrda bitta tez chopar zotli otining narxi 100 tilla, yuk tashish uchun foydalaniladigan otning narxi 5 ming tanga, mil. av. 93 yilda miniladigan otning narxi esa 150 ming tanga bo'lgan. Xan davrda xitoyliklar uch davlatning otlariga ko'proq qiziqishgan. Bular qadimgi Farg'ona, Asuen (Usun) va Ulug' O'g'uziye (Day-yuechji)lik otlari hisoblangan. Xitoy saroyi tomonidan mil. av. 114 yildan to mil. av. 104 yilga qadar otlar masalasida Farg'onaga (Dayyuan) bir necha marta elchilar jo'natilgan. Lekin manbalarda sanoqligina xitoy elchilarning ismlari qayd etilgan. Ushbu yillar oralig'ida Xan

saroyi tomonidan Che Ling (車令) va Yao Dingxan (姚定漢) ismli elchilar Farg'ona (Dayyuan / Davan) otlarini olib kelish maqsadida Markaziy Osiyoga jo'natiladi. Qadimgi Xitoyda mil. III asrning so'ngi choraklarida Xan davlati tanazzulga yuz tutib parchalanib ketadi. Aynan shu davrlarda ham Farg'ona va Xitoy o'rtasida diplomatik savdo aloqalari davom etdi. Masalan, «Veyshu» («Vey [sulolasi] tarixi»)ning «G'arbiy mamlakatlar tazkiri» nomli 102-bobida Luonaguo (洛那國, qad.o'q. Lakna – Farg'ona davlati)da «Tayxe (太和 – 227- 233)ning uchinchi yili (mil. 229 yil) [ushbu mamlakat hukmdori] elchi yuborib, [Vey imperatoriga] tanasidan qonsimon ter oqadigan ot sovg'a qilgan»²¹². Vey sulolasi hukmdori Chen Lyuvang (Yuan-di 260-265) davri 265 yilda, G'arbiy Jin (265-317) sulolasi hukmdori U-di (265-290) davri 270 va 285 yillarda, Xou Chjao (后赵 - Keyingi Chjao davlati – 319-351) hukmdori Shile (石勒 – 319-333 yillarda taxtga o'tirgan) davri 331 yilda, Chyan Chin (前秦 – ilk Chin davlati – 350-394) uchinchi hukmdori Fujyan (357- 385 yillarda taxtga o'tirgan) davri 381 yilda, Shimoliy Vey (386-534) sulolasi uchinchi hukmdori Tay U-di (424- 451) davri 437, 439, 449 va 451 yillarda, aynan shu sulolaning beshinchi hukmdori Ven Cheng-di (452-466) davri 465 yilda Farg'onadan Luoyang, Chang'an va Pingcheng shaharlariga elchilar kelgan. Ular o'zlari bilan badanidan ter qondek oqadigan qimmatbaho otlar, sopol siri (lak), marjon (dengiz toshlari), paxta va boshqa buyumlar olib kelib saroyga xadya etgan. Xitoy saroyi tomonidan mil. av. 114 yildan to mil. av. 104 yilga qadar otlar masalasida Farg'onaga (Dayyuan) bir necha marta elchilar jo'natilgan. Lekin manbalarda sanoqligina xitoy elchilarning ismlari qayd etilgan. Ular o'zlari bilan badanidan ter qondek oqadigan qimmatbaho otlar, sopol siri (lak), marjon (dengiz toshlari), paxta va boshqa buyumlar olib kelib saroyga xadya etgan. Xitoy tomonidan ham Farg'onaga elchilar jo'natiladi. Jumladan, Vey sulolasi tomonidan Dung Van (董琬), Gao Ming (高明) ismli elchilar jo'natiladi. Bu ikkisi dastlab Usun davlatiga borib, u yerdan Dung Van o'zi Puoluona(Farg'ona)ga yo'l oladi, [Gao] Ming esa Chochga elchi bo'lib boradi. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan mamlakatlarning bozorlarida katta miqdoridagi ipak savdosidan tashqari Xitoyning oltin, kumush, mato, tuz, Markaziy Osiyo davlatlarining mahalliy hunarmandchilik buyumlari, meva va o'simliklar, ot, qoramol va boshqa chorva hayvonlar qo'plab sotilgan. Qadimgi farg'onalik savdogarlar Xitoydan kumush va oltin olib kelib undan qimmatbaho buyumlar yasashgan.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Боровкова Л.А. Царства «западного края» во II–I веках до н. э. (Восточный Туркестан и Средняя Азия по сведениям из «Ши цзи» и «Хань шу»). Москва, 2001. С. 307-309.
2. Фанг Хао. Чжунгши жяотунгши (方豪.中西交通史 – Хитой ва Фарб алоқалари тарихи). 1-жилд. Шангхай, 2008. Б. 77.
3. Хо'jayev A. Buyuk Ipak yo'li: munosabatlar va taqdirlar. Toshkent, 2007. B. 180-181.
4. Хо'jayev A. Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar (qadimiy va ilk o'rta asr xitoy manbalaridan tarjimalar va ularga sharhlar). Farg'ona, 2013. B. 79. Vey Shou. Veyshu // Ershisi shi. Pekin, 1974. B. 2270.
5. Хо'jayev A. Farg'ona tarixiga oid ma'lumotlar (qadimiy va ilk o'rta asr xitoy manbalaridan tarjimalar va ularga sharhlar). Farg'ona, 2013. B. 79. Vey Shou. Veyshu // Ershisi shi. Pekin, 1974. B. 2270.
6. Mo Jennan. Veyjin nanbeychao shichide chjungshi jyaotung (莫任南. 魏晋南北朝时期的中西交通 – Vey, Jin, Janubiy va Shimoliy sulolalar davrida Xitoy va g'arb aloqalari) // Xunan pedagogika universiteti jamiyat va fan № 4. Xunan, 1989. B. 70-74.
7. Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. Ташкент, 2005. С. 121.